

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Huquqshunoslik fakulteti

«Umumiy huquqshunoslik» kafedrası

Ulmasov Ramish

**PARLAMENT VA UNING DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI
TIZIMIDAGI O'RNI**

«5380100-Yurisprudensiya» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi»

Kafedra mudiri:
dots.A.G'ulomov

«_____»_____2012 y

Ilmiy rahbar: ass. Abdusattorov A.
«_____»_____2012 y.

Taqrizchi: dots. Qo'ldoshev M.M.

«_____»_____2012 y

S A M A R Q A N D – 2012

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-5
--------------------	------------

1 Bob. Parlamentning institutining umumiy tavsifi

1§. Parlament va uning o'ziga xos xususiyati.....	6-12
2§. Parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rni.....	13-17

II.Bob. O'zbekiston Respublikasida parlamentarizm va uni shakllantirish tartibi

1§. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi organining huquqiy asosi va uning namoyon bo'lish shakllari.....	18-28
2§. Qonunchilik palatasining vakolatlari va tashkiliy shakllari.....	29-39
3§. Oliy Majlis Senatining huquqiy asoslari.....	40-55

Xulosa.....	56-57
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	58-61
--	--------------

Kirish

Tadqiqiot ishining yangiligi. Ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini huquqiy jihatdan aniq –ravshan tartibga solish, bir qancha huquqshunoslik muammolari kompleksini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan hal etish kerak¹, - degan edi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitusiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

Mamlakatimizda ikki palatali parlament tashkil etish zaruriyati va unga yetarli sharoit tug'ilganligi hamda u qanday bo'lmog'i kerak ekanligi to'g'risida ilk bor Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil 25 mayda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida taklif kiritgan va uning asosiy konturlarini belgilab bergan edi². Xalqimiz 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda faol ishtirok etib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi muhim vazifalardan birini hal qilib, demokratiyani yanada rivojlantirish va huquqiy davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish istiqbollari ko'zlab referendumda tarixiy qaror qabul qildi. Ya'ni, referendumga kiritilgan masalalardan biri bo'lgan respublikamizda ikki palatali parlamentni tashkil etilishi masalasiga o'zining ijobiy munosabatini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasida parlamentning qonun chiqaruvchi organ sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik o'zbek milliy davlatchiligini tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir³. Zero, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kunlaridan boshlab demokratik huquqiy davlat

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston. 2011.- 91b.

² I.A.Karimov. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqi // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000. – 528 b..

³ E.Xalilov. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.–T.: O'zbekiston, 2001.–348 b.

qurish yo'lini tanladi va bu yo'lda ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan izchil siyosat olib bormoqda.

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu har doim ilmiy nuqtai nazardan tadqiqot obyekti sifatida o'rganib kelingan. Jumladan, A.A.Azizxo'jayev, S Adiljodjayeva, H.Boboyev, M.Boydadayev, Z.I.Islomov, Sh.I.Jalilov, X.T.Odilqoriyev, F.X.Raximov, A.X.Saidov. M.M.Fayziyev, O.T.Xusanov⁴ asarlarida bu mavzuning u yoki bu jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilib berilgan.

Tadqiqotning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy shining metodologik va nazariy asosini O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning huquqiy demokratik davlatni barpo etish, inson huquq va erkinliklarini har tomonlama muhofaza qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish to'g'risida bildirgan fikr va g'oyalari tashkil etadi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda parlamentning institutining umumiy tavsifi, parlament va uning o'ziga xos xususiyati, parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rni, O'zbekiston Respublikasida parlamentarizm va uni shakllantirish tartibi, O'zbekistonda qonun chiqaruvchi organining huquqiy

⁴ Azizxo'jayev A.A. Demokratiya xalq hokimiyati demakdir. – T.: Sharq. 1996. – 226 b.; Adiljodjayeva S.M. Evolyusiya politiko-pravonoyx idey liberalizma, problemy ix realizasii na soveremennom etape: Voprosy teorii i praktiki: Avtoref.diss.dok.yurid.nauk. –T.: 2003.-51 s; Boboyev H.B. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T.: Fan. 2004. – 294 b.; Boydadayev M. Fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvining dolzarb muammolari. – T. TDYuI. 2003.- 52 b.; Islomov Z.I. Inson huquqlari va hozirgi zamon yurisprudensiyasi. – T.TDYuI. 2008. Jalilov Sh.I. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan o dostoinstve i chesti lichnosti. T.: TGYuI. 2003. – 116 s.; Muqimov Z.Yu. O'zbekiston davlat va huquqi tarixi. Darslik. – T.: Adolat. 2003 y.;Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati – T.: Sharq. 2002. – 320 b.; Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq. 2001. – 762 b.; Fayziyev M.M. Milliy davlatchilik taraqqiyoti. – T.: JIDU. 2002. – 33 b.; Xusanov O.T. O'zbekiston respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. – T.: Universiteti. 1994. -132b.

asosi va uning namoyon bo'lish shakllari, qonunchilik palatasining vakolatlari va tashkiliy shakllari, Oliy Majlis Senatining huquqiy asoslari masalalari ilmiy nuqtai nazardan yoritib berildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati - tadqiqotda keltirilgan takliflardan, xulosalardan konstitusiyaviy huquq, ma'muriy huquq, vakillik organlari, huquqini muhofaza qiliuvchi organlar, sud statistikasi, jinoyat huquqi, jinoyat prosessual huquqi fanlari bo'yicha yuridik fakultetlarda talabalarga dars berishda, ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilish. Kirish, besh paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Bob. Parlamentning institutining umumiy tavsifi

1§. Parlament va uning o'ziga xos xususiyati.

2§. Parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rni.

1§. Parlament va uning o'ziga xos xususiyati.

Parlament fransuzcha «Parler» so'zidan olingan bo'lib, «gapirmoq», «so'zlamok» ma'nolarini anglatadi. Parlament deganda qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy vakillik organi tushuniladi. Davlat hokimiyatining oliy vakillik organini belgilashda parlament atamasi Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Kanada, Italiya, Moldova, Qozog'iston kabi davlatlarda ishlatiladi. Ba'zi mamlakatlarda esa «Majlis» «Kengash» «Assambleya» kabi atamalar keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, davlatlar o'z tarixiy tajribasidan kelib chiqib parlamentlarni shunga muvofiq nomlaydilar, masalan, Latviya va Litvada qonunchilik organi «Seym» deb nomlansa, Turkiyada «Buyuk Millat Majlisi» deb ataladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida va aksariyat Janubiy Amerika mamlakatlari parlamentlari «Kongress» deb nomlanadi.

Aksariyat ikki palatali parlamentlarda palatalarning nomi bir-biridan farq qiladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi quyi palatasi «Vakillar Palatasi», Yuqori palatasi esa «Senat» deb nomlanadi. Parlamentning yuqori palatasi «Senat» deb nomlash odat tusiga kirgan.

Dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarida parlament ikki palatali ko'rinish xosil qilgan. Bunda quyi palata asosan to'g'ridan-to'g'ri saylovlar asosida shakllantirilishi bois liberal xarakter kasb etadi. Yuqori palatada esa aksincha, tayinlash, mandatni meros asosida qabul qilib olish kabi usullar uchrab turishi bois, bu palata konservativ xususiyatga ega xisoblanadi.

Monokameral, ya'ni bir palatali tizim ham dunyo tajribasida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari ba'zi Afrika va Okeaniya davlatlari parlamentlarida maxsus tashkillashtirilgan qo'shimcha palatalar ham uchrab turadi. Parlament demokratik davlatlardagi vakillik organi bo'lib, konun chikarish faoliyati bilan shugullanadi.

Zamonaviy parlament bu yukori turuvchi organ bo'lib, xalk xoxish-irodasini ifoda etadigan konun chikarish yuli bilan jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ijroiya xokimiyati organlari va mansabdor shaxslar ustidan umumiy nazorat olib boradigan markaziy organ xisoblanadi.

Bundan tashkari parlament boshka davlat organlarining faoliyatini xam tashkil kiladi. Parlamentarizm bu parlamentning boshqa davlat idoralariga nisbatan ustuvorligi, konunchilik va ijroiya funksiyalarining anik bulishini tavsiflangan boshkaruv tizimidir. Parlament faoliyatini amlaga oshirish shakllari xar xil bo'lib, jumladan, baxslar yoki sessiyalar shaklida bulishi mumkin.

Parlament baxslari bu parlamentdagi u yoki bu qonun loyihasi bo'yicha chiqishlar bo'lib, unda deputatlar uz fikri va muloxazalarini bildiradilar. Parlament sessiyasi (lotincha sessio - majlis) -parlament va uning xay'atining plenar majlisi bo'lib utadigan vakt. Bir yil ichida parlament sessiyalari necha marta bo'lishi kerakligi qonunlar yoki odat huquqi normalari bilan belgilanadi. Bunday odatdagi sessiyalardan tashkari, navbatdan tashkari va favkulodda parlament sessiyalari bulishi mumkin⁵.

Parlamentning davlat mexanizmida tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, J. Lokk va Sh. Monteskye kabi davlat hokimiyatining bo'linishi g'oyasi tarafdorlari uning vakolatlarini asosan qonun ijodkorligini amalaga oshirish bilan cheklashga intilishgan. J. J. Russo esa davlat hokimiyatining yaxlitligi haqida so'z yuritadi va qonunchilik organining ijroiya hokimiyatni nazorat qilish g'oyasini ilgari suradi.

Zamonaviy parlament bu - qonun qabul qilish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi. Bu funksiya o'z navbatida bir qator moliyaviy vakolatlarni, jumladan, davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish vakolatini ham qamrab oladi. Davlat boshqaruv tizimiga qarab, u yoki bu darajada parlament hukumatni nazorat qilish vakolatiga ham ega xisoblanadi. Masalan, Ispaniya Konstitusiyasiga muvofiq, General Kortesarlar (Ispaniya Parlamenti) qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, davlat byudjetini qabul qiladi va hukumat faoliyatini nazorat qiladi. Biroq jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi xollarda parlamentning o'zi hukumat siyosati ta'siri

⁵ Yuridik ensiklopediya, Toshkent, «Shark», 2001 yil, 355 – bet

ostida qolib ketishi va nisbatan mustaqilligini yo'qotishi mumkin. Bu jarayonni sobiq Sovet davlatlari parlamentlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Qolaversa ayrim rivojlanayotgan Afrika va Osiyo mamlakatlari oliy vakillik organlari garchand rivojlangan /arb mamlakatlari modeli asosida shakllantirilgan bo'lsada, amalda real hokimiyatdan maxrum xolda faoliyat yuritadilar.

Parlamentning vakillik xususiyati shundaki, u butun millat, fuqarolar nomidan ish yuritadi. Shu sababli ko'p xollarda parlamentni nomashda "Milliy", "Xalq" atamalaridan keng foydalaniladi.

18-19-asrlardayoq vujudga kelgan milliy vakillik konsepsiyasi quyidagi tamoyillarning majmui sifatida e'tirof etilishi mumkin:

1. Milliy vakillik konstitutsiya vositasida joriy qilinadi;
2. Suverinitetning mutlaq egasi sifatida millat parlamentga o'z nomidan ish yuritish vakolatini beradi;
3. Parlament a'zosi uni saylagan fuqarolarning emas, balki butun millatning vakili xisoblanadi, shu sababli o'z saylovchilariga qaram ham bo'lmaydi.

L. Dyugi va M. Prelo kabi olimlarning ta'kidlashicha, parlament butun millat o'z nomidan ish yuritish vakolatini bergan organ, u xalq irodasini mustaqil tarzda anglab yetadi va konstitutsiya doirasida faoliyat yuritadi, ya'ni parlament hyech kimga, shu jumladan, fuqarolarga ham bo'ysunmagan tarzda millat manfaatidan kelib chiqqan xolda faoliyat olib boradi, uning milliylik xususiyatigam aynan shunda⁶.

Parlament o'z ijtimoiy-siyosiy funksiyalarini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshira olishi uchun, unga konstitutsiya tomonidan bir qator vakolatlar beriladi.

Parlament vakolatlarining hajmiga qarab uning quyidagi uch xil turini belgilash mumkin:

1. Cheklanmagan vakolatli parlament;
2. Mutlaq cheklangan vakolatli parlament;
3. Nisbatan cheklangan vakolatli parlament.

⁶ Dyugi L. Konstitusionnoye pravo. M., 1908 y., 416 b. Prelo M. Konstitusionnoye pravo Fransii. M., 1957 y., 436 b.

Parlamentar boshqaruv shakliga ega bo'lgan aksariyat davlatlarda parlament vakolatlari cheklanmagan xisoblanadi. Bunga Buyuk Britaniya parlamenti klassik misol bo'lishi mumkin. Ingliz huquqshunos olimlarining ta'kidlashicha, Parlamentning ustivorligi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Qonun qabul qilish soxasidagi ustunlik. Qonun faqat parlament tomonidan qabul qilinishi mumkin, o'z navbatida qonun normativ huquqiy aktlar iyerarxiyasida birinchi o'rinni egallaydi;

2. Davlat byudjetini tasdiqlash va soliqlarni joriy qilish huquqi;

3. Hukumatning parlament oldidagi javobgarligi;

4. Sudyalarni o'z lavozimiga tasdiqlash huquqi;

5. Parlament vakolatlariga o'xshash vakolatlarni amalga oshiruvchi raqobatchi hokimiyatning mavjud emasligi⁷.

Huquqshunos P. Bromxed mutlaq vakolatli parlament g'oyasini yoqlab chiqadi. Uning ta'kidlashicha, qonun mazmuniga doir hech qanday cheklovlar, uni qabul qilishga hech qanday to'siqlar mavjud emas⁸.

Parlamentni davlat hokimiyatning oliy vakillik va yakka qonunchilik organi sifatida belgilagan Yaponiya Konstitusiyasida parlament vakolatlari aniq sanab ko'rsatilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, Yaponiya Parlamenti cheklanmagan vakolatli parlament organi ekanligini tasdiqlaydi.

Parlamentning qonunchilik soxasidagi vakolatlarining muayyan doiraga kiritilishi, uni mutlaq cheklangan vakolatli parlament sifatida e'tirof etish imkonin beradi. Fransiya Konstitusiyasining 34, 35, 49-moddalari parlamentning qonunchilik yo'li bilan hal qilishi mumkin bo'lgan masalalar ro'yxatini belgilab beradi. Qolgan masalalar bilan asosan hukumat shug'ullanadi. Fransiya parlamenti o'z vakolati doirasidan chetga chiqib qonun qabul qiladigan bo'lsa, bu hujjat Konstitusiyaviy Kengashning xulosasiga asosan hukumat dekreti bilan bekor qilinishi mumkin.

⁷ Уэйд Е., Филлипс Г. Конституционное право. М., ИЛ, 1950 й., 70 б.

⁸ Бромхед П. Эволюция Британской конституции. М., ЮЛ, 1978 й., 199 б.

Rivojlanayotgan davlatlar parlamentlari vakolatlarini ham ko'p xollarda mutlaq cheklangan vakolatlar sifatida qayd etish mumkin. Senegal, Gabbaon kabi ilgari Fransiya mustamlakasi bo'lgan davlatlarda parlament, aynan, fransuz modeli asosida joriy qilingan. Nisbatan cheklangan vakolatli parlamentlar ko'proq uchrab turadi. Bu kabi parlamentlar asosan federativ yoki markazlashmagan unitar tuzilish shakliga ega bo'lgan mamlakatlarga xos. Sababi bunday davlatlarda markaziy hokimiyat organlarining vakolatlari federasiya subyektlari huquqlari bilan cheklanadi, shunga asosan parlament faqat mahalliy hokimiyat organlari huquqi bilan cheklangan doiradagina o'z faoliyatini yuritishi mumkin. Masalan AQSh Kongressi faqat Konstitutsiyada aniq ko'rsatib qo'yilgan vakolatlarnigina amalga oshirishi mumkin.

Ispaniya Konstitutsiyasida ham shunga o'xshash tartib o'rnatilgan bo'lib, unga binoan, Konstitutsiyada bevosita davlat vakolati doirasiga kiritilmagan masalalar, Avtonom uyushmalar ixtiyoriga ularning Nizomlariga asosan beriladi.

Birinchi parlament qayerda paydo bulgan? Birinchi parlament Angliyada paydo bulgan deb sanash qabul qilingan. Uning tug'ilishi shakllanayotgan burjuaziya va dvoryanlarning urtasidagi murosaa bo'lib, aholining bu ikki guruhi urtasidagi qarama -qarshiliklarni bartaraf etish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Dastlab, parlament qirolga maslaxatlar bergan, ammo keyinchalik u uziga tegishli bulgan o'rinni egalladi.

Nisbatan yoshi katta bulgan parlamentlar katoriga Ispaniyaning kortesini xam kushishimiz mumkin. Eng kadimgi parlament tugilgan mamlakat roli uchun kup mamlakat musobakalashmaydi. Islandiya poytaxti Reykyavik yakinida joylashgan bir nechta kupol va katta toshlarga ishora kilib bu yerda ochik osmon ostidagi dastlabki parlament bulgan deb aytishadi. U xozir xam oldingi nomi bilan Alting deb ataladi. Islandiyaliklar bu yerda kadimgi vikinglar uz ishlarini muxokama kilishgan va xal kilishgan deb xisoblaydilar.

Parlamentarizm bosqichlari. Parlament va parlamentarizm tarixi bir necha asrlarni bosib kelmokda. Agar birinchi parlament XIII yoki XIV asrlarda

shakllangan deb xisoblasak, parlament va parlamentarizm tarixini turt bosqichga bulish mumkin.

Birinchi, boshlangich, boskichni *parlamentarizm institutining o'rnatilishi* deb atash mumkin. Bu bosqichda parlament davlat organi sifatida urnatila boshlangandi: parlament uz urni va rolini kidira boshlagan, birinchilik uchun kurashgan; uni shakllantirish uchullari ishlab chikila boshlangandi. Bu boskich yetarli uzok davom etgan (XIV - XIX asrlar).

Ikkinchi boskich - parlamentarizmning oltin davri - parlament va parlamentarizmning gullab-yashnash davri deb atash mumkin.

Bu boskich aytarli davomiy bulmagan (XVIII asr oxiri va XX asr boshlari), ammo parlamentarizm tarixida yorquin iz koldirgan. Bu davrda parlament saylov senzi asosida shakllantirilgan bo'lib, fakat bir sinfnings - tugilib kelayotgan burjuaziyaning manfaatlarini ifodalagan.

Faktik jixatdan fakat bir gurux uzlarining ichlaridan eng ma'kullarini tanlab olganlar. Aynan shu davrda parlament ayolni erkakka aylantirishdan va erkakni ayolga aylantirishdan boshka xar kanday ishni amalga oshira oladi deb ayta boshlaganlar. bu ibora uning usha vaktdagi kuch kudratidan dalolat beradi.

Bu davrda ayollar saylash huquqiga ega bulmaganlar va parlament saylash huquqiga ega bulgan shaxslar guruxining un - un besh foizi tomonidangina saylangan.

Uchinchi boskichni shartli ravishda *parlamentarizmning inkiroz davri* deb atash mumkin. XX asrning boshlarida tarakkiy etgan davlatlarning kupchiligida xolat uzgardi: boshka ijtimoiy katlamlar xam siyosiy xayotda katnashishni talab kila boshladilar, ushbu katlamlar va guruxlar manfaatlarini ifodalovchi partiyalar tashkil topa boshladi, senzli saylash huquqi anaxronizm deb sanala boshlandi. Parlament oldingidek karorlar kabul kilishda tezkor emas edi, eng muximi, u bir katlam manfaatlarini ifodalashdan tuxtadi.

Parlament uz urnini ijro xokimiyatiga bushatib berishi kerakligi talab kilindi va xakikatda xam ijro xokimiyati liderlik pozisiyasini egalladi. Ilmiy

- tatdikotchilar bu xolni ma'kulladilar. Masalan, angliyalik professor Djenings parlamentning vazifasi mamlakatni boshkarish emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'sir kursatish va hukumat xatti - xarakatlarini nazorat qilish deb xisoblaydi.

«Parlament inqirozi» deyarli uzok vaqt hukm surdi. Oxirgi yigirma yillikda esa parlament uzining *parlamentlarning kayta tugilishi* deb ataluvchi yangi boskichiga kutarildi deb aytish mumkin. XX asrning 70 - 90 - yillarida parlament xalk yigilishining faol va vakillik organiga aylandi.

2§. Parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'рни.

Parlament jarayoni uzoq muddat davom etadi va muayyan masalani hal etish salmoqli vaqt sarfini talab etadi. Ba'zan ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi, takomillashib, yagicha ko'rinish kasb etib borishi parlament jarayonini samarali tashkil etish uchun ana shu vaqtni qoldirmasligi mumkin. Bu xolat masalani o'preativ tarzda hal etish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa organlarga parlamentning tegishli vakolatlarini yuklash zaruratini kelirib chiqaradi. Odatda, bu vaklatlar hukumtgа topshiriladi.

Hukumatga topshiriladigan vakolatlarning aksariyat qismini qonunchilik soxasidagi vakolatlar tashkil etadi. Hukumat bu vakolatlarga ega bo'lgach, mustaqil tarzda qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi.

Parlament vakolalarini hukumtgа o'tkazish tartibi Ispaniya Konstitusiyasida aniq belgilab berilgan. Ispaniya Parlamenti organik xususiyatga ega bo'lmagan masalalar yuzasidan qonun kuchiga ega normalar qabul qilish vakolatini hukumatga yuklashi mumkin. Qonunchilik vakolatini hukumatga o'tkazishda parlament tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan masala va bu borada tegishli hujjatni qabul qilish uchun ajratilgan vaqt aniq ko'rsatilishi lozim. Hukumatning qonunchilik soxasida parlamentan qabul qilib olgan vakolati masala hal bo'lib, bu borada qabul qilingan hujjat rasmiy tartiba e'lon qilingandan so'ng o'z kuchini yo'qotadi. Konstitusiyaga muvofiq hukumatdan boshqa organga qonunchilik vakolatlarini o'tkazish qat'iyan man qilinadi. Parlament o'z vakolatini hukumatga o'tkazish jarayonida qabul qilinishi lozim bo'lgan hujjatning predmeti va hajmini, ustivor qoida va tamoyillarini anilashtirib beradi.

Parlamentning qonunchlik vakolati hukumatga o'tkazilan bir sharoitda, agar parlament hukumat qonunchilik yo'li bilan hal etayotgan masalaga zid qonun o'zgartirishlari tashabbusi bilan chiqadigan bo'lsa, ijroiya hokimiyati parlamentdan bu harakatlarni amalga oshrmalikni talab qilishi mumkin. Hokimiyat organlari o'rtasida bu kabi ixtilof yuzaga keladigan bo'lsa, parlament hukumatga qonunchilik soxasida topshirgan vakolatlarni qaytarib olishi mumkin. Hukumat

tomonidan o'z muddatli qonunchilik vakolati doirasida qabul qilgan hujjati, Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik dekretlari deb nomlanadi.

Parlamentning qonunchilik vakolatlarini boshqa organga o'tkazish tartibining bu qadar aniqlashtirib ko'rsatilishi jahon pralamentchilik tajribasida kam uchraydigan xolat. Odatda, konstitutsiyalar bu masalaga unchalik katta urg'u bermaydi. Masalan polsha Konstitutsiyasida bu masalani tartibga solish uchun yetti qismdan iborat bir modda ajratilgan xolos. Bu moddaga muvofiq Seym hukumat tomonidan taqdim etilgan yetarli asos mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu organga qonun kuchiga ega hujjatlar qabul qilish vakolatini topshirishi mumkin. Seym qonunchilik vakolatini hukumatga topshirish paytida, hal qilinishi lozim bo'lgan aniq masalani belgilaydi yoki hukumatning qonunchilik vakolati doirasini belgilaydi. Qonunchilik vakolati hukumatga taqdim qilingan bir sharoitda, hal qilinayotgan masala va u taalluqli bo'lgan soxa bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqi ham aynan hukumatga topshiriladi. O'z navbatida Konstitutsiya boshqa organga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan parlament qonunchilik vakolatlarini aniq belgilab beradi. Shunga muvofiq, Konstitutsiyani o'zgartirish, Prezident va Parlament, mahalliy boshqaruv organlari saylovlari, davlat byudjeti, fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, shuningdek majburiyatlari bo'yicha parlament qonunchilik vakolatlarini boshqa organga o'tkazish man etiladi.

Garchanda Polsha Konstitutsiyasi muhokama qilinayotgan masalani Ispaniya Konstitutsiyasi kabi u qadar keng yoritmagan bo'lsada, biroq bu boradagi cheklovlarni aniqlashtiradi. Bu xolat, o'z navbatida, hokimiyatlar mustaqilligini ta'minlash uchun o'ta zarur xisoblanadi. Ispaniya Konstitutsiyasida o'z-o'zidan tabiiy xolat sifatida qaralgan bu tartib nihoyatda muhim bo'lib, uning Ispaniya Konstitutsiyada aniqlashtirilmaganini katta kamchilik sifatida e'tirof etish mumkin.

Parlamentning nafaqat qonunchilik soxasidagi, balki boshqa vakolatlari ham boshqa organga o'tkazilishi mumkin. Masalan, Italiya Konstitutsiyasining 79-moddasiga asosan, Parlament palatalari amnistiya va afv qilish soxasidagi o'z vakolatlarini Respublika Prezidentiga o'tkazishi mumkin. Italiya Konstitutsiyasida

o'rnatilgan bu tartibning o'ziga xos xususiyati shundaki, parlament vakolatlarini Prezidentga o'tkazish bir martalik xususiyatga ega.

Parlament vakolatlarini boshqa organga o'tkazish nafaqat parlamentning o'zi tomonidan hal etiladi, balki ba'zi xollarda to'g'ridang'to'g'ri Konstitutsiyada ko'rsatib qo'yiladi. Bu ko'proq socialistik davlatlarga xos xolat xisoblanadi. Masalan, Kuba Konstitutsiyasi Parlamentga tegishli ayrim vakolatlarni sessiyalar va, xatto, yig'ilishlar orasida hukumat - Davlat Kengashi tomonidan amalga oshirilishi lozimligini belgilaydi. Demokratik Konstitutsiyalarda esa bu tartib juda kam uchraydi. Odatda, Konstitutsiyalar favqulodda xolat ro'y bergandagina parlament vakolatlarini boshqa organga o'tkazish mumkinligini belgilay

Parlament uzining funksiyalarini a'lo darajada bajarishi uchun u Konstitutsiyada belgilangan bir qator vakolatlarga ega buladi. Parlamentlarning vakolatlari orasida eng muhim urin uning konunchilik faoliyati tutadi. Shuningdek parlamentlar Konstitutsiyalarni kabul kiladi, ularga uzgartirish va kushimchalar kiritadi, shuningdek, x,ar yil davlat byudjetini kabul kiladi.

Parlament boshka davlat organlarini tulik, yoki kisman shakllantirishda ishtirok etishi mumkin. Masalan Ukrainada parlament Antimonopol kumitaning raisi va Bosh prokurorni tayinlashga prezidentga ruxsat beradi. Bir k,ancha mamlakatlarda prezident parlament tomonidan saylanadi. Masalan, Isroil, Turkiya, Isroilda. Totalitar rejim mavjud bir kdncha davlatlarda parlament sessiyalar oraligida parlament vakolatini bajaruvchi doimiy faoliyatdagi organi saylaydi. Masalan, Kubada Davlat Kengashi, Butun Xitoy xalk; vakillari kengashining doimiy komiteti va xokazo.

Ba'zi bir davlatlarda parlament hukumat tarkibini shakllantiradi. Bu hukumatni shakllantirishning parlament modeli nomini olgan. Parlament modeli asosida hukumatni shakllantirishda parlament saylovlarining natijasi muxim ahamiyatga ega bo'lib xisoblanadi (Ikki palatali parlamentlarda asosan kuyi palataga bulgan

saylovlarning natijasi muxim). Bu model parlamentarrespublika va monarxiya, shuningdek aralash boshkaruv mavjud bulgan davlatlarga nisbatan xarakter l idir. Umumiy kridaga kura davlat boshligi hukumat raxbarini tanlaydi va ushbu hukumat parlamentdagi kupchilikning ishonchi bilan ijro xrkimiyatini amalga oshiradi. Mandatga ega bulgandan sung hukumat boshligi hukumat tarkibini tuzadi va uning kelajakdagi faoliyati Dasturi bilan parlament tasdig'iga olib kiradi (Italiyada buni parlamentning ikkala palatasi xam tasdikdasa, Buyuk Britaniyada bunday huquq, fakat umumpalataga berilgan). Ba'zi davlatlarda parlament fakatgina hukumat boshlig'i tasdiqdaydi. Masalan, Bolgariyada hukumat boshligi tasdikdan utgandan sung hukumatni tuzadi va uz faoliyatini davom ettiradi. Germaniyada esa Federal prezidentning taklifiga binoan, Bundestag hukumat boshligi - Federal Kanslerni tasdiklaydi. Shvesiyada esa hukumat boshligi kirol tomonidan emas, balki Riksdag talmani tomonidan amalga oshirilar ekan.

Hukumatni shakllantirishning parlament modeliga konstitusiyaviy misol sifatida Gresiya Konstitusiyasining 37-moddasini keltiramiz . Ushbu moddaga kura prezident hukumat boshligini tayinlaydi va uning taklifiga binoan hukumatning boshka a'zolari va davlat sekretarlar (moxiyatiga kura ministrning birinchi urinbosari)ini tayinlaydi. Premyer ministr kilib deputatlar palatasida eng kup urin egallagan partiyaning lideri tayinlanadi. Agar da ushbu partiyaning x,ali lideri tayinlanmagan bulsa partiyaga 5 kunlik muddat beriladi⁹.

Xullas, Parlamentning asosiy vakolatlarini quyidagi guruxdarga ajratishimiz mumkin:

1. Qonun ijodkorligi sohasidagi;
2. Moliya sohasidagi (davlat byudjetini tasdiqlashi);
3. Xalqaro shartnomalarni ratifikasiya va denonsasiya qilish sohasidagi;
4. Referendum tayinlash;

⁹ Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Учебник. В 4-х томах. Том 3. Отв. ред. Б.А.Страшун. -М.: Бек. 1997. - 764 с.

5. Davlat organlari, tashkilot va muassasalari ustidan nazorat urnatish - parlament nazorati siyosiy (masalan hukumatga ishonchsizlik bildirilishi) va yuridik (masalan, tergov organlarining tuzilishi) tus olishi mumkin.

6. Urush va favqulodda holatlar paytidagi vakolatlari - bularga avvalambor, urush e'lon qilish, favqulodda vaziyatlarni joriy qilish kiradi.

II.Bob. O'zbekiston Respublikasida parlamentarizm va uni shakllantirish tartibi.

1§. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi organining huquqiy asosi va uning namoyon bo'lish shakllari.

2§. Qonunchilik palatasining vakolatlari va tashkiliy shakllari.

3§. Oliy Majlis Senatining huquqiy asoslari.

1§. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi organining huquqiy asosi va uning namoyon bo'lish shakllari.

O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitusiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransuz tilidan olingan bo'lib, "gapirmoq" ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi-parlamentlar bor.

Hozirgi zamon parlamentlari o'zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, saylanish tartibi mavqeyi bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular hatto nomlanishi,

deputatlarining soni bilan ham farq qiladilar, masalan: AQShda 535 deputatdan iborat Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy Xalq vakillari majlisida 2979 a'zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Xalq Assambleyasi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset, Islandiyada 63 a'zodan iborat Altningni misol qilib ko'rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko'pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Yer kurrasidagi 65 ta davlatda esa, ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko'pincha "quyi palata" deb yuritilib, u xalqning yagona irodasini ifodalaydi. (AQShda - Vakillar palatasi, Fransiya - Millat Majlisi), boshqasi esa "yuqori palata" deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokratik an'analar hamda federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga xosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSh, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yurgizmoqdalar.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar, aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadilar. Ko'rinib turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa-qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Konstitusiyasining 10-moddasida, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ-Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari–O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasida qonun chiqaruvchi hokimiyat aloxida o'rin tutadi. Konstitusiyamizda kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga aloxida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 76- moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati - besh yil.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002 yil 12 dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitusiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy xuquqiy asoslarini yaratish jarayoni muxim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitusiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi»¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'korg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. O'zbekiston

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitusiyaviy qonuni.-Xalq so'zi, 2002, 27 dekabr.

Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida saylanishini muhim konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas deb ko'rsatilgan.

“O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga saylov to'g'risida”gi qonunining 25-moddasida Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qo'yilgan:

sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;

Hozirda amalda bo'lgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Yosh senzining bunday belgilanishi shu bilan izohlanadiki, deputat ozmi-ko'pmi ma'lum

hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha xorijiy mamlakatlarning Konstitusiyalari va qonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSh Konstitusiyasida 25 yoshga to'lmagan shaxs Kongressning Vakillar palatasining a'zosi bo'lishi mumkin emas. Yaponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lmagan, maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Shuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzlari ma'lum.

2004 yil 26 dekabr va 2005 yil 9 yanvarda takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylashdi va ro'yxatga olindi. Saylovda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan siyosiy partiyalardan 435 va saylovchilarning tashabbuskor guruxlardan mustaqil nomzodlar 56 kishi ishtirok etdi. 2004 yil 26 dekabrdagi asosiy saylovda 12197159 (85,1%) saylovchi, joriy yil 9 yanvarida esa 5400000 dan ortik, kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish xuquqiga ega saylovchilarning qariyb 80% qatnashdi.

Saylovlar natijasida O'zbekiston Liberal — demokratik partiyasi saylovchilarning eng ko'p ovozini oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,3% saylandi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3% saylandi. Shuningdek, Fidokorlar partiyasining 11 a'zosi, "Adolat" partiyasining 10 a'zosi saylandi.

Qonunchilik palatasiga nomzod qo'yilgan xotin —qizlar jami 159 kishi kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizmni namoyish etdi, siyosiy yetuklik, akl zakovat raqiblaridan qolishmadi. Natijada qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18%ni xotin —qizlar tashkil etdi, bu esa 1999 yilda Oliy Majlisga bo'lgan saylovlaridagidan ikki yarim baravar ko'pdir.

Tashabbuskor guruxlardan ko'rsatilgan 56 nomzoddan 14 kishi deputatlikka saylandi, qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasidan ular 11,6%ni tashkil etdi.

Saylangan deputatlar orasida 18,3% —yuristlar, 21,7% —iqtisodchilar. Deputatlarning 10% sanoat, qurilish, transport va aloqa soxasi vakillari, 7,5% qishloq xo'jaligi vakillari, 12,5% tadbirkorlar, 20% ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash xodimlari, 16% nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari.

Bu o'zgarishlar eng avvalo Qonunchilik palatasining doimiy, professional asosida ish olib borishidir. Bu palataga a'zo bo'lish uchun asosiy da'vogarlar sifatida siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbus guruhlar maydoniga chiqadi», - deb ko'rsatadi I.A.Karimov.

Bu palataga saylangan deputat siyosiy jarayonda faol ishtirok etib, professional nuqtai-nazardan mana shu qonun chiqaruvchilik, qonun yaratuvchilik va qonun ijod qilish ishi mukammal yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar bo'lishi lozim.

Yuqori-Senatorlar palatasi esa territorial subyektlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6-tadan, hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

Prezident I.A.Karimovning Sessiyada so'zlagan nutqida ko'rsatilganidek, «yuqori palata a'zolari joylardagi vaziyatdan yaxshi xabardor, ularni saylangan kengashlar bilan uzviy aloqa bog'lib turuvchi», ko'proq minatdorlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan deputatlardan iborat bo'ladi. «Senat qo'yi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim», balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma'qullashi yoki rad qilish orqali, ham o'z mintaqasi manfaatlarini hisobga olgan holda, hamda butun mamlakatimiz - O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasidagi oqilona muvozanat ana shunday konstitusiyaviy-huquqiy nazariy, hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan «Ochiq demokratik jamiyat» qurishning birinchi konstitus

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishida, avvalo, 1990 yil 24 mart kuni Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib Prezidentlik lavozimining joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimining joriy etilishi mustaqillik g'oyalarini tezkorlik bilan amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengash yig'ilishi chaqirilib, O'zbekiston Respublikasining "Mustaqillik Deklarasiya"si qabul qilindi. Bu hujjatning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u o'zbek davlatchiligi tarixidagi birinchi tinch yo'l bilan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi to'g'risidagi hujjat edi. Unga ko'ra, o'zbek xalqi davlat boshqaruvida har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini va farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb o'z zimmasiga olgan holda, xalqaro huquq qoidalariga asoslanib o'zining "Mustaqillik Deklarasiya"sini e'lon qildi. Va bundan buyon O'zbekiston o'zining tashqi munosabatlarida, davlat hokimiyati masalalarini hal etishda tanho hokimligini, uning chegaralari va hududi daxlsiz ekanligi, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etishi va demokratik huquqiy davlat tashkil topganligini butun dunyoga ma'lum qildi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy yangilanish istiqbollari rejalarini belgilab berdi. Batamom mustaqillikni qo'lga kiritish uchun ma'lum bir vaqt talab qilinar edi. Chunki Sobiq Ittifoq Markazida bunga qarshi juda katta kuchlar tayyor bo'lib turar edi. Mana shunday og'ir bir vaziyatda: "taqdir I.A.Karimov zimmasiga jamiyatning murakkab ichki va tashqi siyosiy sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va davlat huquqi masalalarini hal qilishga da'vat etilgan, uning qayta o'zgartiruvchisi bo'lishdek nihoyatda og'ir vazifani yukladi. Shunday vaziyatda ham I.A.Karimov o'zini buyuk rahbar sifatida ko'rsatdi."¹¹

¹¹ Sh.Z.O'razayev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T.: "Adolat", 1994 y. 12-bet

Davlat va jamiyat hayotidagi muammolarni tezkorlik bilan hal etish kechiktirib bo'lmaz ahamiyatga ega edi. Chunki o'sha vaqtlarda SSSRning taqdiri hal bo'layotgan edi. "Markaz" rahbarlari xalqni har xil siyosiy yo'llar va kuch bilan qo'rqitib, Ittifoqni saqlab qolishga harakat qilayotgan edilar.

Shunga qaramasdan 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasi chaqirilib, "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonot"i e'lon qilindi: "O'tmishdan saboq chiqarib Ittifoqning siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib, xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab, shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasida chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatni bayon etib, millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, respublika hududida yashovchi har biri kishining munosib hayot kechirishini sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etishga intilib, "Mustaqillik Deklarasiya"sini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi".¹²

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining "Mustaqilligi Deklarasiyasi"ga va "Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti"ga asoslanib, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonunni qabul qildi. Ushbu qonun O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligini uzil-kesil mustahkamladi. Unda, jumladan "O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir" deyiladi. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi xalqining severenligi, davlat hokimiyati uning xohish-irodasiga muvofiq vakillik organlari tizimi orqali amalga oshirilishi, hududi va chegaralari daxlsiz va bo'linmasligi, u O'zbekiston xalqining

¹² Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti. Xalq so'zi. 1991 yil 2 sentyabr.

roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi prinsiplari mustahkamlandi. Shuningdek, davlat hokimiyati idoralarining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tartibiga asoslanishi belgilab berildi.

O'zbekiston Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish mustaqil davlatning asosiy belgisi sifatidagi huquqi ekanligi ko'rsatildi. Uning hududidagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklar umummilliy boylik ekanligi, ishlab chiqarish vositalari va boshqa noishlab chiqarish fondlari, transport, aloqa va energetika tizimlari respublika mulkidir, deb mustahkamlandi. Dastlabki bozor munosabatlari rivojlantirishda mulk shakllari bundan buyon to'liq takomillashtirilishi va buning tegishli qonunlar asosida kafolatlanishi belgilab berildi. Chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari, muxtor vakillar bilan ayriboshlash, xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish uning ajralmas huquqidir deb ko'rsatildi. Shular bilan birga, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda inson huquqlari umumjahon deklarasiyasiga muvofiq, inson qadr-qimmatini ulug'lanishini doimo nazarda tutishini, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z davlat ramzlari va davlat tilini o'zi belgilashini deb e'lon qildi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi... O'zbekistonning davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilinishini taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi."¹³

O'zbekiston Konstitutsiyasi uning xalqi erishgan huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyatini tashkil etishdagi o'z xohish istaklarini qonuniy tartibda rasmiylashtirib, mustahkamladi. "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun e'lon qilingan kundan

¹³ Sh.Z.O'razayev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T.: "Adolat", 1994 y. 7-bet.

boshlab to yangi Konstitutsiya qabul qilingunga qadar 15 oy vaqt o'tdi, ana shu davr ichida davlat boshqaruvini qayta tashkil etishda g'oyat katta amaliy ishlar tajribasi to'plandi. Unda yashovchi xalqlarning yangicha yashashga va o'z davlat tuzumini barpo qilishga bo'lgan intilishlari va ularning huquq va erkinliklarini rivojlantirishning eng muhim kafolati ekanligi unda mustahkamlab qo'yildi.

Shu davr mobaynida demokratik ijtimoiy va davlat tuzumining asoslari, oliy va mahalliy davlat hokimiyati va idora organlarining tizimi tarkib topdi, umuminsoniy demokratiya prinsiplari o'rnatildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari maromiga yetkazildi. Bu prinsiplar xalq ommasining ham mamlakat ichida, ham butun jahonda mustaqillik uchun olib borgan kurashlari natijasini o'zida mujassamlashtirdi. Shu tariqa, mustaqil O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi hamda faoliyati prinsiplarini va boshqa ijtimoiy munosabatlarni belgilab beradigan Konstitutsiya qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi.

Mustaqillikning o'tgan yillari mamlakatimizda milliy davlatchiligimizning mustahkamlanishi va demokratik an'analarning rivojlanishi davri bo'ldi. Bu davr mobaynida fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishining huquqiy negizlari va mexanizmlari muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

Mamlakatimizda ikki palatali parlament tashkil etish zaruriyati va unga yetarli sharoit tug'ilganligi hamda u qanday bo'lmog'i kerak ekanligi to'g'risida ilk bor Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil 25 mayda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida taklif kiritgan va uning asosiy konturlarini belgilab bergan edi¹⁴.

Xalqimiz 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda faol ishtirok etib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi muhim vazifalardan birini

¹⁴ I.A.Karimov. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqi // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000. – 528 b.

hal qilib, demokratiyani yanada rivojlantirish va huquqiy davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish istiqbollarini ko'zlab referendumda tarixiy qaror qabul qildi. Ya'ni, referendumga kiritilgan masalalardan biri bo'lgan respublikamizda ikki palatali parlamentni tashkil etilishi masalasiga o'zining ijobiy munosabatini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasida parlamentning qonun chiqaruvchi organ sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik o'zbek milliy davlatchiligini tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir¹⁵. Zero, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kunlaridan boshlab demokratik huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi va bu yo'lda ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan izchil siyosat olib bormoqda.

2001 yil 30 avgustda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida qabul qilingan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasining ikkinchi bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlari referendum qaroriga muvofiqlashtirilmog'i lozim. Ushbu qonun normasiga muvofiq bo'lib o'tgan referendum qarorlarini hayotga tadbqiq etish parlament islohotlarini amalga oshirishning navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Shu bois ushbu yirik ijtimoiy- siyosiy tadbirni amalga oshirish bo'yicha ayrim fikr va mulohazalarimizni keltiramiz.

¹⁵E.H.Xalilov. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.—T.: O'zbekiston, 2001.—348 b.

28. Qonunchilik palatasining vakolatlari va tashkiliy shakllari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq yurtboshimiz I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etish" mavzua'ruzasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ruzasida qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi¹⁶.

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi¹⁷.

Shubhasiz, parlamentimizning faoliyatini takomillashtirish hamda demokratiyalashga yo'naltirilgan yirik tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari qabul qilindi¹⁸. Lekin mazkur hujjatda Oliy Majlis faoliyatining faqat qonunchilik, nazorat-tahlil faoliyati va o'tkazadigan tadbirlari ko'rsatilgan. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi devonining Nazorat-axborot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

¹⁶ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar, № 20 (3565).

¹⁷ Bu haqda batafsilroq qarang: Xalilov E.X. Parlament Uzbekistana na sovremennom etape razvitiya strany. // Pravo. №1. - 1998. – 8-11-betlar.

¹⁸ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli Qarori

2005 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 63 ta qonun loyihalarini qabul qilish rejalashtirilgan. Shulardan 25 tasi ishlab chiqiladigan, 6 tasi yangi tahrirda kiritiladigan va 32 tasi amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritishga oid qonunlar loyihalaridir.

Aytish joizki, qonun ijodkorligi jarayonini Reglament va maxsus Qonun bilan tartibga solinishi dolzarb masalaga aylanadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish Qonunchilik palatasi ishini to'g'ri tashkil etish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Qonunchilik palatasi vakolatlarining samarali bajarilishi ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etilishini taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot ta'minlash, palata ishini to'g'ri rejalashtirishni taqazo etmoqda.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri – bu deputatlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi har bir deputatlarning vazifalarini aniq-tiniq bo'lishiga erishishdir.

Odatga ko'ra, boshqa davlatlarda ham vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbar shaxslar va devon xodimlari borligini nazarda tutgan holda taqsimlanadi. Palataning yuqoridagi tarkibi chet davlatlar tajribasiga xos bo'lib, uning ishini unumli tashkil etishda raisning roli ayniqsa muhim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma'qullash uchun Senatga yuboradi;

Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi va h.k.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli. Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarining kengligi uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarini to'g'ri taqsimlashni taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Qonunchilik palatasi Spikeri yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirishi mumkin bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajarib turadi degan qoida mustahkamlangan.

Umuman, qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlarining vazifalarni bajarish Qonunchilik palatasi devoni xodimlari tomonidan qator tadbirlarni amalga oshirishini taqozo qiladi.

Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishda uning devonining o'rnini kattadir. Chunki Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini Qonunchilik palatasi devoni amalga oshiradi. Qonunchilik palatasining devoni palata rahbariyati huzuridagi kotibiyatni, qo'mitalar bilan ishlash, yuridik, nazorat-axborot xalqaro aloqalar, matbuot va tarjimalar, umumiy bo'lim va buxgalteriyani o'z ichiga oladi¹⁹. Devoning bunday tuzilishi va ularning bajaradigan vazifalari palataning ishini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Lekin rivojlangan davlatlar parlamentlari devonlari faoliyatining tahlili mazkur nizomga ayrim o'zgartishlar kiritish lozimligini anglatadi.

Qayd etilganidek, devonning asosiy vazifasi bu parlamentni axborot bilan ta'minlashdir. Axborot bilan ta'minlash degani bu hal qilinayotgan masala yuzasidan obyektiv va ilmiy asoslangan ma'lumotni taqdim etishni nazarda tutadi. Rivojlangan davlatlarda bunday faoliyatni kutubxonalar va ular tarkibidagi ilmiy tadqiqot xizmatlari tashkil etadi. Qonunchilik palatasida esa kutubxona ishini umumiy bo'limning yuritishi ko'rsatib o'tilgan xolos.

Parlament faoliyatini samarali tashkil etishda ilmiy tadqiqot xizmatlarini ahamiyati katta. Chunki, ular parlament a'zolarini obyektiv ma'lumot bilan ta'minlab, to'g'ri qaror qabul qilinishiga zamin yaratadi. Chet el parlamentlarining ilmiy tadqiqot institutlari o'z qaramog'ida katta kitob fondlari, kundalik nashrlar va ma'lumot manbalariga ega bo'lib, odatda parlament kutubxonalarida joylashadilar. Kutubxonalar deputatlarni kerakli axborot, muammolar yuzasidan aniq va obyektiv manbalar bilan ta'minlashga xizmat qiladilar.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005 yil 7 apreldagi 73-sonli Farmoyishi.

Odatda, parlament kutubxonalarining ko'pchiligida 20 nafarga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Fidji, Gabbon, Mavrikiy va Uganda ilmiy tadqiqot institutlari bir xodimdan iborat bo'lib, Yaponiyada 847ta (772 deputatga) va AQSh Kengressida 4 ming kishidan oshadi. Umuman olganda, parlament ilmiy-tadqiqot institutlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 1945 yilda AQSh Kongressi ilmiy-tadqiqot institutining xodimlari 45 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1955 yilda ularning soni 130 taga yetdi, hozirgi kunga kelib esa 4 ming kishidan oshib ketdi.

Qonunchilik palatasining devoni bo'limlar shuningdek, qo'mitalar bilan ishlash, yuridik xulosa berish, nazorat-axborot, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish va boshqa muhim tashkiliy va axborot vazifalarini amalga oshiradi. Parlament ishini tashkil etishning O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, parlament devoni ishini to'g'ri tashkil etish uning vazifalarini samarali amalga oshirishning kafolatidir. Parlament apparati xodimlari mansab instruksiyalarini ishlab chiqish bu boradagi dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli – bu uning majlislaridir. Uni o'tkazishning o'zi Qonunchilik palatasining faoliyati masalalarni birgalikda muhokama qilish, to'g'ri o'tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik, va jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun deputatlarni majlislarda muntazam va samarali ishtirokini ta'milash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qonunchilik palatasi kollegial organ bo'lib, uning vakolatlariga doir masalalar albatta deputatlarning birgalikdagi muhokamasi uning faoliyati asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi majlislaridagi masalalar bo'yicha ovoz berish shakl va uslublarini belgilash katta ahamiyatga ega. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasining qarorlari uning majlislarida ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ochiq ovoz berish nomma-nom, ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalangan holda yoki yashirin ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qoida tariqasida, Qonunchilik palatasi majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni Qonunchilik palatasi deputatlari jumlasidan bo'lgan guruh amalga oshiradi. Bu guruh ovozlarni to'g'ri tashkil etish uchun javob beradi. Agarda deputatlarda elektron tizimni to'g'ri ishlashi haqida shubha paydo bo'lsa, ular byulletenlardan foydalangan holda ovoz berishni tanlashlari mumkin.

Demokratik jamiyat barpo etish O'zbekiston siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Ikki palatali parlamentning joriy etilishi belgilangan maqsad sari amalga oshirilgan muhim islohotlardan biridir. Lekin ushbu parlamentning biz uchun yangiligi, rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi parlament vazifalarining samarali bajarilishi uning qo'mita va komissiyalari faoliyatiga bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda. Fransiya parlamenti quyi palatasi mudofaa va Qurolli Kuchlar bo'yicha komissiyasining sobiq raisi esa, "Milliy Majlisni yomon tomosha ekanligini qarang, vaholanki haqiqiy ish mavjud va u komissiyalarda bajariladi" deb aytishi ushbu holatni tasdiqlaydi. Barcha masalalarni uzoq va sinchkovlik bilan dastlab komissiyalarda o'rganilishi ular faoliyatining tashkiliy masalalarini muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga ko'ra Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata

tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Milliy qonunchiligimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo'mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya) bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi²⁰.

Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va qo'mita a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi olinganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

“O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida”gi qonuni 7-moddasining uchinchi qismiga ko'ra Qonunchilik palatasida reglament; Byudjet, bank va moliya masalalari; Iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; Qonunchilik va sud-huquq masalalari; Mehnat va ijtimoiy masalalar; Mudofaa va xavfsizlik masalalari; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitalari tuzilishi shart. Qonunchilik palatasida boshqa qo'mitalar ham tuzilishi mumkinligi ko'rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o'ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mehnat va ijtimoiy masalalar, Mudofaa va xavfsizlik masalalari, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Sanoat, qurilish, va savdo masalalari, Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitalari tuzilgan²¹.

²⁰ Конституции зарубежных государств. Учебное пособие. Москва: “Бек”, стр.50-55, 60-61.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining “O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida”gi 2005 yil 27 yanvardagi 14-I-sonli qarori.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasini tuzilgan. Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkinligi mustahkamlangan.

Parlamentlardagi qo'mitalar soni, nomi va vakolatlarini belgilashda ularning faoliyati davlat siyosatining barcha jabhalarini qamrab olishidan kelib chiqiladi. Bunday yondashuv natijasida xorijiy davlatlar parlamentlari qo'mita va komissiyalarining soni aytarli darajada salmoqli bo'ladi. Misol uchun, Yaponiya "Parlamenti to'g'risida"gi qonunining 42-moddasiga ko'ra Maslahatchilar palatasida adliya, tashqi siyosat, moliya, maorif, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy ma'muriyat, ijtimoiy muammolar, mehnat, qishloq xo'jaligi, o'rmon va suv xo'jaligi, savdo va sanoat, aloqa, transport, qurilish, shuningdek, byudjet, taftish, intizomiy va parlamentda ishni tashkil etish masalalari bo'yicha komissiyalar tuziladi. AQSh Kongressida palatalarning (soliqqa tortish, iqtisod, Kongress kutubxonasi, nashrlar bo'yicha) 4 ta umumiy va har birining tarkibida (Senatda – 16 ta, Vakillar Palatasida – 22 ta) ko'plab qo'mitalar tuzilgan.

Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarning parlamentlarida ham turli komissiyalar tuziladi. Biroq, komissiyalarning soni qanchalik ko'p bo'lmasin, ular davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab ololmaydilar. Shuning uchun komissiyalarning nomi ularning faoliyat sohalaridan kengroq bo'lishi mumkin. Misol uchun, qurilish bo'yicha komissiyalar nafaqat qurilish, balki yerdan foydalanishni rejalashtirish, kartografiya, topografiya masalalari bilan ham shug'ullanadilar²².

O'z zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishi uchun O'zbekiston qonunchiligida qo'mitalarga keng vakolatlar berilgan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunning 18-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

o'z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan

²² Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т. 1 – 2.- М., 1996, С. 456.

masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;

qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;

qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;

Qonunchilik palatasining topshirig'iga yoki palata Kengashining tavsiyasiga binoan muayyan qonun loyihasi yoki palata vakolatlariga kiradigan boshqa masala yuzasidan mas'ul bo'ladi;

kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi;

qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi;

kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ayon bo'ladiki, ushbu vakolatlarni amalga oshirish jarayonida

parlament qo'mitalari qonunchilik, nazorat va axborot to'plash funksiyalarini amalga oshiradilar.

O'zbekistonda qonun matni ko'rib chiqish uchun qo'mitaga berilganidan so'ng, u o'z tarkibidan ma'ruzachini tayinlaydi. Ma'ruzachi ushbu qonunning mohiyatini ko'rib chiquvchi qo'mita majlisida maslahat ovozi bilan qatnashishi va qo'mita tomonidan kiritilgan tuzatishlarni himoya qilishi mumkin. Tayinlanishi bilanoq ma'ruzachi matn ustida ishlashni boshlaydi. Unga palata devonining xodimlari salmoqli yordam ko'rsatadi. U matn mualliflari, shuningdek, lozim deb topgan boshqa mansabdor va jismoniy shaxslarni eshitadi. Bular davlat mansabdor shaxslari, xususiy sektor, kasaba va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari bo'lishlari mumkin. Zarur bo'lgan barcha axborotlarni to'plab, qonun matnining har bir moddasini tahlil qilib, ma'ruzachi o'z fikrini taqdim qiladi, shundan keyin masala qo'mita kun tartibiga qo'yiladi.

Umumiy muhokamani boshlashdan oldin, odatda, qo'mita majlisida manfaatdor shaxs o'z fikrini bayon qiladi va deputatlar savollariga javob beradi. Keyin ma'ruzachining nutqi har bir a'zo o'z fikrini bayon qilishi mumkin bo'lgan umumiy muhokamani ochib beradi. Muhokamadan so'ng doimiy qo'mita matnni moddama-modda o'rganishga o'tadi. U ma'ruzachi va doimiy komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar bo'yicha qaror qabul qiladi. Yakunida matn ovozga qo'yiladi va qo'mita qarori qabul qilinadi.

38. Oliy Majlis Senatining huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini isloh qilish masalasi faqat parlament faoliyatini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti masalalarinigina emas, balki demokratiyani yanada rivojlantirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalarini amalga oshirishdan ham iboratdir. Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida bu haqda batafsil fikr yuritish lozim.

Parlamentarizm, shubhasiz, huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati rivojining dastlabki shartidir. Parlamentning qanday bo'lishi, davlat hokimiyati tizimida qaysi o'rinni egallashi, qanday qonunlarni qabul qilishi va ular inson huquq va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olishi va boshqalar davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatini ham belgilab beradi. Parlament kuchsiz bo'lsa, davlat jamiyat ustida hamisha og'ir yuk bo'lib bosib turadi, qonunning nufuzi esa past bo'ladi. Kuchli parlamentda jamiyat xalq hokimiyatchiligini ta'minlashning samarali vositasiga hamda Konstitutsiyaning obro'-e'tiboriga ega bo'ladi. Faqatgina qonun hukmronligi va ustuvorligi sharoitida davlat - huquqiy, jamiyat esa -fuqarolik deya atalishga haqlidir.

Platon va Aristoteldan, keyin esa T.Gobbs, J.Lokk, J.Mil, G.Leybnis, T.Kampanella, B.Paskal, Sh.Monteskye, J.J.Russo, F.Gizo, parlamentning ikkala palatasini nomlash uchun Bosh shtatlar, Ispaniyada Bosh korteslar tushunchasi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida bu Oliy Majlis, AQSh va Lotin Amerikasidagi aksari mamlakatlarda u Kongress, Rossiya Federasiyasida Federal Majlis, Litva, Latviya va Polshada - Seym deb ataladi, Sharqiy Yevropada parlamentlar Xalq Majlisi (Bolgariya), Davlat Majlisi (Vengriya), Milliy Kengash (Slovakiya) deb ataladi va hokazo. Bunda parlamentning mohiyati o'zgarmaydi.

Parlamentarizmning takomillashib va mustahkamlanib borishi umumjahon tendensiyasi hisoblanadi. Parlament rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari uning oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organ sifatidagi tabiatining o'zida mavjuddir. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlar uchun xos

bo'lgan xususiyat shuki, parlament o'z vazifasini qanchalik samarali bajarsa va hokimiyatlar bo'linishi tizimida kuchliroq mavqyega ega bo'lsa, huquqiy davlat va uning qonunchilik tizimi shunchalik samaraliroqdir. O'zbekiston Respublikasining saylovlar to'g'risidagi qonun hujjatlari asosiy universal saylov huquqi prinsiplariga asoslangan. Ammo bir vaqtning o'zida ushbu prinsiplarning qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilishi yetarli emas, muhimi ularni saylovlar jarayonida hayotga joriy qilishdan iboratligi haqidagi A.S.Tursunovning mulohazasi shu o'rinda nihoyatda ahamiyatlidir.²³

Skandinaviya mamlakatlari va Fransiya konstitusiyaviy huquqi sohasidagi taniqli mutaxassis M.M.Mogunova qayd etganidek, «Hyech shubha yo'qki, hokimiyatni jamiyatning turli tabaqalari tomonidan amalga oshirishning vakillik shakllarini rivojlantirmasdan va takomillashtirmasdan turib, ya'ni parlament demokratiyasiz jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas»²⁴. Rossiyalik boshqa olim, parlament huquqi bo'yicha mutaxassis A.P.Lyubimov qayd etadiki, har qanday mamlakat parlamenti siyosiy, mintaqaviy hamda xususiy intilishlarning murakkab va xilma-xil tarzidagi mushtarakligi natijasidir. Parlament turli manfaatlarining umumiy mushtarakligida birinchi o'ringa xalq farovonligi chiqqandagina demokratik bo'ladi. «Bunday sharoitda qonun chiqaruvchi hokimiyat (vakillik hokimiyati) va fuqarolik jamiyati institutlari shaxs, inson va fuqaro erkinliklari mujassamlanadigan real sohaga aylandi»²⁵.

Vakillik va qonunchilik ishlari parlamentning asosiy va o'zaro bog'liq holda yuzaga keluvchi vazifalaridir. Shu ma'noda tadqiqotchi I.V. Kotelevskayaning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas, zero «vakillik mandatlarining butun xilma-xilligida qandaydir umumiylik bor -parlamentlarning a'zolari asosiy, ya'ni

²³ Сборник материалов международного семинара. Т: - 2004г. стр. 34-40.

²⁴ Могунова М.А. Скандинавский парламентаризм. Теория и практика. - М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2001,-С.9.

²⁵ Любимов А.П. Парламентское право России. - М.: Издательско-книготорговый центр «Маркетинг», 2002, - 34.

parlamentlarning qonunchilik vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan ijtimoiy manfaatlarni ifodalashlari kerak²⁶.

Vakillik vazifalarini inkor qilish va bajarmaslik parlamentning qonunchilik va boshqa vazifalari mohiyatiga putur yetkazadi. Parlament vazifalari doirasini faqat qonun ijodkorligi bilan chegaralab quyishga intilish «parlamentning boshqa muhim belgisi kamsitilishiga olib kelishi mumkin: uning tashkil etilishi va faoliyat yuritishining vakillik jihatlarini rivojlantirmasdan turib fuqarolik jamiyati demokratiya va huquqiy davlat prinsiplarini rivojlantirishi mushkul»²⁷. Biroq XIX asrning birinchi yarmi mumtoz fransuz liberalizmi vakillari parlamentda avvalo vakillik boshqaruvi mexanizmini ko'rganlar. F.Gizo qayd etganidek, zamonaviy parlamentarizmning «pubertat» rivojlanishi davrida vakillik boshqaruvining maqsadi - «jamiyat va hokimiyat o'rtasida tabiiy va qonuniy munosabatni o'rnatishdan, ya'ni uni chinakam ustunlikka ega bo'lgan va hokimiyatni uning belgilangan maqsadiga muvofiq ravishda idora qilishga qodir kishilar qo'lida bo'lishiga majbur qilishga ... urinishdan iborat»²⁸. Gizoning fikricha, bu tizim voqyea-hodisalar tabiatiga ko'proq mos tushadi, negaki hokimiyatni qonun bilan bog'lab qo'yib hokimiyat bilan erkinlik o'rtasidagi birlik muammosini hal qiladi. Zero, J.Lokk yozganidek, «...fuqarolik qonuni yuklaydigan majburiyat tabiat qonunidan kelib chiqadi va biz hukmdorga uning kuch-qudrati tufayligina itoat etishga majbur bo'lib qolmay, balki buni tabiiy huquqqa ko'ra ado etmog'imiz shart»²⁹.

Parlamentning vakillik vazifalarini bajarishi jamiyatning demokratik madaniyatini yuksaltirish garovi bo'lajagi ham tasavvur qilingan. Xususan, F.Gizoning quyidagi so'zlari xuddi bugungiday va dolzarb jaranglaydi. Ya'ni «palatalar, parlamentdagi bahslarning oshkoraligi, saylovlar, matbuot erkinligi, prisiyajniylar sudi - bu tizimning barcha shakllari, uning tabiiy natijasi sifatida

²⁶ Котелевская И.В. Современный парламент // Государство и право. - 1997. - №3. - с.10

²⁷ Котелевская И.В. Современный парламент // Государство и право. - 1997. - №3. -с.10.

²⁸ Классический французский либерализм: Сборник /Пер с фр. - М: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЕН), 2000. - С.364.

²⁹ Локк Дж. Сочинения : В 3т./Пер.с англ. и лат. Т.3/Ред.и сост., авт. примеч. А.Л.Субботин. - М.: Мысль, 1988.-С.40.

qaraladigan barcha institutlar o'zining maqsadi va natijasi tariqasida doimo jamiyatni bezovta qiladi, unda mavjud bo'lgan har xil afzalliklarni namoyon qiladi, ularni shu hokimiyatdan mahrum bo'lib qolish bilan qo'rqitib, ularni hokimiyatdan faqat oshkora va barchaning qurbi yetadigan vositalar yordamidagina foydalanishga undab, ularni shu hokimiyatga munosib bo'lishga majbur qiladi»³⁰.

Vakillik hokimiyatining shakli va mazmuni o'rtasidagi uzviy aloqani ko'rsatib o'tar ekanlar, fransuz liberalizmi klassiklari, aslini olganda, demokratiyaning parlamentarizmdan tashqarida rivojlanishi mumkin emasligini aytib o'tganlar. Bunda gap o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlashning mutanosib tizimi asosida hokimiyatlarning bo'linishi tuzilmasiga mos tushgan parlamentarizm haqida bormoqda.

Mukammal ko'rinishda esa, ushbu tizimga muvofiq, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tashkiliy jihatdan bo'linib ketmasligi kerak, lekin bir-biridan rasman va to'la mustaqil bo'lishi; har bir hokimiyat boshqa hokimiyatlarni nazorat qilish va cheklab turishi imkoniyatini beradigan vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Ulardan hyech biri na rasmiy, na amaliy jihatdan ustunlikka ega bo'lmasligi kerak. Buning ustiga, ular parlament hokimiyatini ham ushbu prinsiplarga muvofiq ikki qismga ajratganlar. Chunonchi fransuz liberal mutafakkiri B.Konstan yuqori palatani parlamentning quyi palatasiga tegishli qonunchilik hokimiyatidan farqlagan holda, uni hokimiyatning alohida tarmog'i deb bilgan³¹.

Aftidan, ikki palatali parlament g'oyasi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimiga juda yaqin turadi, farq faqat shundaki, bunda gap vakillik va qonunchilik hokimiyatining oliy organi sifatida parlamentning o'z tarkibiy tuzilishi haqida bormoqda. Amaliyotda ikki palatali parlamentga ega bo'lgan mamlakatlarning aksariyatida ikkala palataning vakolatlari o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimi asosida shakllantiriladi. Qoida tariqasida, quyi palata ancha faol, liberal, ko'pincha siyosiy

³⁰ Классический французский либерализм: Сборник /Пер. с фр - М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЕН), 2000. -С.366

³¹ Совет Федерации: Эволюция статуса и функции/ Отв. Ред. Л.В.Смирнягин. - Муассаса: Институт право и публичной политики/. 2003. - С. 17.

partiyalar ishtiroki tufayli radikal hamdir. Yuqori palata konservativ posangi vazifasini o'taydi. Ikki palatali tizimning asosiy g'oyasi ana shu nisbatda tasavvur qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini isloh qilish masalasi faqat parlament faoliyatini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti masalalarinigina emas, balki demokratiyani yanada rivojlantirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalarini amalga oshirishdan ham iboratdir. Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida bu haqda batafsil fikr yuritish lozim.

Parlamentarizm, shubhasiz, huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati rivojining dastlabki shartidir. Parlamentning qanday bo'lishi, davlat hokimiyati tizimida qaysi o'rinni egallashi, qanday qonunlarni qabul qilishi va ular inson huquq va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olishi va boshqalar davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatini ham belgilab beradi. Parlament kuchsiz bo'lsa, davlat jamiyat ustida hamisha og'ir yuk bo'lib bosib turadi, qonunning nufuzi esa past bo'ladi. Kuchli parlamentda jamiyat xalq hokimiyatchiligini ta'minlashning samarali vositasiga hamda Konstitutsiyaning obro'-e'tiboriga ega bo'ladi. Faqatgina qonun hukmronligi va ustuvorligi sharoitida davlat - huquqiy, jamiyat esa -fuqarolik deya atalishga haqlidir.

Platon va Aristoteldan, keyin esa T.Gobbs, J.Lokk, J.Mil, G.Leybnis, T.Kampanella, B.Paskal, Sh.Monteskye, J.J.Russo, F.Gizo, parlamentning ikkala palatasini nomlash uchun Bosh shtatlar, Ispaniyada Bosh korteslar tushunchasi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida bu Oliy Majlis, AQSh va Lotin Amerikasidagi aksari mamlakatlarda u Kongress, Rossiya Federasiyasida Federal Majlis, Litva, Latviya va Polshada - Seym deb ataladi, Sharqiy Yevropada parlamentlar Xalq Majlisi (Bolgariya), Davlat Majlisi (Vengriya), Milliy Kengash (Slovakiya) deb ataladi va hokazo. Bunda parlamentning mohiyati o'zgarmaydi.

Parlamentarizmning takomillashib va mustahkamlanib borishi umumjahon tendensiyasi hisoblanadi. Parlament rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari

uning oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organ sifatidagi tabiatining o'zida mavjuddir. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlar uchun xos bo'lgan xususiyat shuki, parlament o'z vazifasini qanchalik samarali bajarsa va hokimiyatlar bo'linishi tizimida kuchliroq mavqyega ega bo'lsa, huquqiy davlat va uning qonunchilik tizimi shunchalik samaraliroqdir. O'zbekiston Respublikasining saylovlar to'g'risidagi qonun hujjatlari asosiy universal saylov huquqi prinsiplariga asoslangan. Ammo bir vaqtning o'zida ushbu prinsiplarning qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilishi yetarli emas, muhimi ularni saylovlar jarayonida hayotga joriy qilishdan iboratligi haqidagi A.S.Tursunovning mulohazasi shu o'rinda nihoyatda ahamiyatlidir.³²

Skandinaviya mamlakatlari va Fransiya konstitusiyaviy huquqi sohasidagi taniqli mutaxassis M.M.Mogunova qayd etganidek, «Hyech shubha yo'qki, hokimiyatni jamiyatning turli tabaqalari tomonidan amalga oshirishning vakillik shakllarini rivojlantirmasdan va takomillashtirmasdan turib, ya'ni parlament demokratiyasiz jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas»³³. Rossiyalik boshqa olim, parlament huquqi bo'yicha mutaxassis A.P.Lyubimov qayd etadiki, har qanday mamlakat parlamenti siyosiy, mintaqaviy hamda xususiy intilishlarning murakkab va xilma-xil tarzidagi mushtarakligi natijasidir. Parlament turli manfaatlarining umumiy mushtarakligida birinchi o'ringa xalq farovonligi chiqqandagina demokratik bo'ladi. «Bunday sharoitda qonun chiqaruvchi hokimiyat (vakillik hokimiyati) va fuqarolik jamiyati institutlari shaxs, inson va fuqaro erkinliklari mujassamlanadigan real sohaga aylandi»³⁴.

Vakillik va qonunchilik ishlari parlamentning asosiy va o'zaro bog'liq holda yuzaga keluvchi vazifalaridir. Shu ma'noda tadqiqotchi I.V. Kotelevskayaning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas, zero «vakillik mandatlarining butun xilma-xilligida qandaydir umumiylik bor -parlamentlarning a'zolari asosiy, ya'ni

³² Сборник материалов международного семинара. Т: - 2004г. стр. 34-40.

³³ Могунова М.А. Скандинавский парламентаризм. Теория и практика. - М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2001,-С.9.

³⁴ Любимов А.П. Парламентское право России. - М.: Издательско-книготорговый центр «Маркетинг», 2002, - 34.

parlamentlarning qonunchilik vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan ijtimoiy manfaatlarni ifodalashlari kerak³⁵.

Vakillik vazifalarini inkor qilish va bajarmaslik parlamentning qonunchilik va boshqa vazifalari mohiyatiga putur yetkazadi. Parlament vazifalari doirasini faqat qonun ijodkorligi bilan chegaralab quyishga intilish «parlamentning boshqa muhim belgisi kamsitilishiga olib kelishi mumkin: uning tashkil etilishi va faoliyat yuritishining vakillik jihatlarini rivojlantirmasdan turib fuqarolik jamiyati demokratiya va huquqiy davlat prinsiplarini rivojlantirishi mushkul»³⁶. Biroq XIX asrning birinchi yarmi mumtoz fransuz liberalizmi vakillari parlamentda avvalo vakillik boshqaruvi mexanizmini ko'rganlar. F.Gizo qayd etganidek, zamonaviy parlamentarizmning «pubertat» rivojlanishi davrida vakillik boshqaruvining maqsadi - «jamiyat va hokimiyat o'rtasida tabiiy va qonuniy munosabatni o'rnatishdan, ya'ni uni chinakam ustunlikka ega bo'lgan va hokimiyatni uning belgilangan maqsadiga muvofiq ravishda idora qilishga qodir kishilar qo'lida bo'lishiga majbur qilishga ... urinishdan iborat»³⁷. Gizoning fikricha, bu tizim voqyea-hodisalar tabiatiga ko'proq mos tushadi, negaki hokimiyatni qonun bilan bog'lab qo'yib hokimiyat bilan erkinlik o'rtasidagi birlik muammosini hal qiladi. Zero, J.Lokk yozganidek, «...fuqarolik qonuni yuklaydigan majburiyat tabiat qonunidan kelib chiqadi va biz hukmdorga uning kuch-qudrati tufayligina itoat etishga majbur bo'lib qolmay, balki buni tabiiy huquqqa ko'ra ado etmog'imiz shart»³⁸.

«O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (78,80-moddalar) va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy Qonunida (8, 9-moddalar)

³⁵ Котелевская И.В. Современный парламент // Государство и право. - 1997. - №3. - с.10

³⁶ Котелевская И.В. Современный парламент // Государство и право. - 1997. - №3. - с.10.

³⁷ Классический французский либерализм: Сборник /Пер с фр. - М: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЕН), 2000. - С.364.

³⁸ Локк Дж. Сочинения : В 3т./Пер.с англ. и лат. Т.3/Ред.и сост., авт. примеч. А.Л.Субботин. - М.: Мысль, 1988.-С.40.

Senatning asosiy vazifalari mutlaq vakolatlarida va Qonunchilik palatasi bilan birgalikdagi tasarrufiga kiruvchi vakolatlarida aks ettirilgan.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, mutlaq vakolatlar jumlasiga, birinchidan, Senatning ichki ishini tashkil etish (masalan, Raisni, uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; palata faoliyatini tashkil etish va ichki tartib qoidalari) masalalari kiritilgan («O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 80-moddasining 1 va 13-bandlari). Ikkinchidan, kadrlar siyosatiga oid masalalar bo'lib, ularning bir qismi Konstitutsiyaning 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bir palatali Oliy Majlis tasarrufiga kiritilgan edi. Xususan gap O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini (80-modda 2-bandi), O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini (80-modda 3-bandi), O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini (80-modda 4-bandi) saylash haqida bormokda. Ana shu vakolatlar jumlasiga shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimlaridan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni ham kiritish kerak bo'ladi (80-modda 6-bandi). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan Senat O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini (80-modda 5-bandi) va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini (80-modda 9-bandi) tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

Senatning 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya tahririda bir palatali parlamentda bo'lmagan vakolatlari jumlasiga O'zbekiston Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni (80-modda 7-bandi), shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etishni kiritish mumkin. Shu bilan birga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish Senatga berilgan yangi parlament vakolati hisoblanadi (80-modda 10-bandi).

Sud va ijro etuvchi hokimiyat organlarining oliy mansabdor shaxslarini saylash, tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalari bo'yicha vakolatlarining o'ziga xosligi shundaki, ular vakillik hokimiyatini amalga oshirish nuqtai nazaridan xam, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishda qatnashish jihatidan ham siyosiy xususiyatga ega. Prezidentning takdimiga binoan saylaydigan va hal qiladigan yoki Prezidentning kadrlarga oid qarorlarini mustahkamlaydigan organ huquqida ishtirok etar ekan, Senat shu asnoda mazkur qarorlar bo'yicha Prezident bilan ma'suliyatni bo'lashishadi va, ayniqsa, Senat o'zi saylash va tayinlashda bevosita ishtirok etadigan mansabdor shaxslarga nisbatan nazorat qilishga oid vazifalar amalga oshirilishiga ko'maklashadi. Aytilgan fikr, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisiga taalluqli (80-modda 12-bandi) bo'lib, ular Konstitusiyaga muvofiq Senat oldida hisobot beradilar (80-modda 12-bandi).

Umuman olganda, bu vakolatlar Senatning nafaqat parlament samarali ishlashi uchun zarur konservativ elementga ega bo'lgan hududiy vakillik palatasi sifatidagina emas, balki umuman parlamentning, ayniqsa ijro etuvchi hokimiyat bilan hamkorlik qilish va uning ustidan nazorat olib borish masalalarida siyosiy vosita sifatidagi tutgan o'rnini belgilaydi. Shuni qayd etish kerakki, vakillik xususiyati tufayli mazkur vosita guruhlariga bo'linmagan, nopartiyaviy mohiyatga ega.

Mazkur holat «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitusiyaviy Qonunning hududiy belgiga ko'ra hamda siyosiy va boshqa asosda guruhlar tuzilishini istisno etadigan norma bilan mustahkamlanadi (2-moddaning beshinchi qismi). Qonunlarning loyihalarida va quyi palataning boshqa qarorlarida o'z aksini topadigan partiyaviy va boshqa guruhlarining siyosiy

manfaatlari ularning mintaqaviy va umumdavlat manfaatlariga muvofiqligi jihatidan saralashdan o'tkaziladi. Umumdavlat manfaatlari va hududlarning manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik va vakillik ishida aks ettirish bilan bog'liq boshqa vazifalarni Senat Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda bajaradi.

Palatalarning birgalikdagi tasarrufiga kiritilgan vakolatlar, aslini olganda, parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi yagona oliy davlat vakillik organi sifatidagi asosiy vazifasini aks ettiradi. Bular ikkala palataning tegishli tartib-taomillar asosida o'zaro muvofiqlashtirilib kelishilgan qarori talab qilinadigan masalalardir. Mazkur tartib-taomillar (palatalarni shakllantirishning turli usullari bilan bir qatorda) ikki palatali tizimga nisbatan uyushtiruvchi elementlar hisoblanadi va bu tizim ularsiz o'zining bajaradigan mazmunini yo'qotadi. Mazkur tartib-taomillar yordamida birgalikdagi tasarrufdagi quyidagi masalalar («O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 37 78-moddasi) hal etilib, ularni to'rt guruhga bo'lish kerak bo'ladi: 1) qonunchilikka oid; 2) vakillikka oid; 3) nazoratga oid; 4) ma'muriy-hududiy tuzilishga oid. Bunday bo'lish shartlidir va u tegishli vakolatlarni ancha qulay - tartibli tasavvur etish uchun xizmat qiladi. Birinchi guruhni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini qabul qilish, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish (1-band); O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish (2-band); xalqaro shartnomalarni ratifikasiya va denonsasiya qilish (20-band) tashkil etadi. Oxirgi vakolat nazorat qilish xususiyatiga ham ega. Yana shuni ta'kidlash kerakki, palatalarning birgalikdagi tasarrufidagi sohalar bo'yicha bir qator qarorlari qonun vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli vakolatlarning qolgan toifalari ularning amalga oshirilishi maqsadlari asosida farqlanadi. Jumladan, ikkinchi guruhni vakillik vazifalari bilan bog'liq va ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy ahamiyatga molik vakolatlar tashkil etadi. Chunonchi gap Uzbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish

to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish (3-band); Uzbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish (4-band) to'g'risida bormoqda. Bu shuningdek: O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash (5-band); boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish (7-band); soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish (9-band); davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish (12-band); O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish (14-band) hamdir.

Saylovlar parlament tarkibini shakllantirishning muhim vositasidir. Butun parlament ishi samaradorligi Senatni shakllantirish qanday tamoyillar va normalardan foydalanilgan holda kechganligiga bog'likdir. Binobarin yuqori palatani tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament islohoti umumiy mafkurasining tarkibiy qismidir. O'z navbatida palatani shakllantirish tamoyillari va normalari Senat zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadi.

Ushbu o'zaro shartlilik va o'zaro bog'liqlilik senatorlar korpusini shakllantirish va palata faoliyatini tashkil etishining boshqa masalalari - palata ishini konstitusiyaviy tarzda belgilangan maqsad va vazifalar doirasida samarali tashkil etishning yagona normativ-huquqiy tizimidan iborat ekanligini ko'rsatadi. Garchi ushbu tizim umum e'tirof etgan oshkoralik va nomzodlarning bellashuvi prinsiplari asosida, yuksak demokratik mezonlar zahirida barpo etilsada, birinchi navbatda mamlakat siyosiy tizimining xususiyatlarini ifodalaydi va shu tarzda tashkiliy mazmuniga ko'ra betakrordir. Jahonda yuqori palatalarni shakllantirishning usul va tartiblari orasida xilma-xillik kuzatilayotganligi tasodifiy hol emas. Har bir milliy tajriba tegishli siyosiy tizim va davlat mexanizmining tarixan rivojlanishi tendensiyalarini ifodalaydi.

Muqaddam (avvalgi 1.1, 1.2 bo'limlarda) ta'kidlanganidek, o'rta asrlarda paydo bo'lgan dastlabki yuqori palatalar aristokratik qatlamlar imtiyozli mavqeyga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy tuzilmasi

manfaatlarini aks ettirgan edi. Ushbu imtiyozli qatlamlarning vakilligi yoki tayinlanish yo'li bilan, yoxud yuqori palata a'zosi bo'lishning meros qilib qoldirilishi huquqi orqali ta'minlangan.

XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Yevropa va AQShda liberalizmning rivojlanishi bilan bog'liq holda yuqori palatalar tizimi shaklining demokratik o'zgarishi holati kuzatildi. Yuqori palatalari saylov asosida shakllantiriladigan parlamentlar paydo bo'ldi (masalan, Niderlandiyada 1815 yilgi Konstitutsiya asosidagi Bosh shtatlar birinchi (yuqori) palatasi, Belgiyadagi 1831 yilgi Konstitutsiya bo'yicha Senat). Yuqori palatalarni tuzishning demokratik shakli Ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar va undan keyin ham davom etdi³⁹.

Lekin yukori palatalarni shakllantirishning muayyan prinsipi va normalari ichki siyosiy omillar ta'sirida ishlab chiqildi va hamma vaqt umumjahon tendensiyalariga muvofiq kelavermas edi.

Masalan, ijro hokimiyatini mustahkam va yuqori palata mexanizmidan ushbu maqsadlarda foydalanish tendensiyasi Fransiya Respublikasi 1958 yilgi Konstitutsiyasida o'zining aksini topib, unga binoan Senat bilvosita (qo'shimcha) ovoz berish vositasida saylanadigan bo'ldi va bu oxir-oqibatda Senatda konservatik eskilikka moyil elementlar kuchayishiga olib keldi.

Ijro va qonunchilik hokimiyatiga tegishli bu va shu singari bir qator konstitutsiyaviy o'zgarishlar fransuzlarning o'z so'zlari bilan aytganlaridek «Konstitutsiya mualliflari parlamentning davlat tizimida harakat ko'rsatishi chegaralanishiga erishdilar», «parlamentning suverenitetiga xotima berishga urindilar» deb ta'kidlash uchun asos bo'la oladi⁴⁰.

Fransiya Senatidagi bugungi ahvol fransuz parlamentarizmi muttasil tadrijiy rivojlanishining natijasi ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu an'ana Beshinchi respublikada faqat rasmiyatchilik uchungina saqlanib qolgan. Prezidentlik boshqaruvi shakliga o'tish bo'yicha islohotlar diktator yetakchi Sh.de-Gollning

³⁹ Конституция зарубежных государств - М. Издательство БЕК - 1997. X бет.

⁴⁰ М.Боннар. Роль парламента Институти власти во Франциии. - Издательство Посольства Франции в Москве, 1993 г. - С. 67.

nomi bilan bog'liq va u hokimiyatni «oqilona tashkil etish», «unga katta barqarorlik», «intizomlilik baxsh etish», parlamentning qonunchilik faoliyati samaradorligini oshirish, partiyaviy manfaatlardan kelib chiquvchi siyosiy lo'ttiboqliklarning ehtimolini qisqartirish, deb atalgan soxta shiorlar ostida o'tkazildi⁴¹.

Shu munosabat bilan zamonaviy Rossiya tajribasi ham ibratlidir. Rossiya Federasiyasi yuqori palatasi tuzilishi tartibining doimiy o'zgarib borishiga siyosiy omillar juda katta ta'sir ko'rsatdi. Federasiya Kengashining birinchi tarkibi Federasiya har bir subyektidan ikki nafardan deputatning konstitusiyaviy vakillik normasi saqlangan holda saylandi. Natijada Federal Kengashning a'zosi mandatini lavozim bo'yicha qo'lga kiritish prinsipi amalda bo'ldi, bu esa Rossiya Federasiyasining Konstitusiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan emasdi. Ushbu holat keyinchalik yuqori palata shakllantirilishining turli ko'rinishlarini muntazam ravishda joriy etishga olib keldi.

Bir qator Rossiyalik olimlar shu munosabat bilan yuqori palatani shakllantirish tartibini o'rganishdagi noaniqliklarning yuzaga kelishiga siyosiy vaziyat ta'sir ko'rsatganligi haqida fikr bildiradilar. Masalan, S.A.Avakyanning yozishicha, Federasiya Kengashining birinchi tarkibiga saylovlar haqidagi qarorga kelish uchun 1993 yil 21 sentyabr voqyealari, va ayniqsa 3-4 oktyabrdan keyin respublika rahbarlari va Federasiya subyektlari qonun chiqaruvchi organlari raislaridan Prezidentga nisbatan ijobiy munosabat kutish mumkin bo'lmaganligi, natijada bir vaqtning o'zida saylovlar davomida Prezidentga hayrihoh nomzodlar saylanishiga erishish ham mumkin emasligi sabab bo'lgan edi. Birinchi Federasiya Kengashiga saylovlarning siyosiy maqsadlar bilan bog'liq ekanligini P.L.Fedosov ham ta'kidlagan. Eng avvalo bu bog'liqlik 1993 yil kuzida (ma'lum voqyealar so'ngida) Prezident tomonidan yaqindagina Oliy Sovet tarqatib yuborilganidan keyin Federasiya Kengashini ko'pchiligi o'ziga o'ta salbiy munosabatda bo'lgan mintaqaviy rahbarlardan iborat qilib shakllantirish Prezident tomonidan

⁴¹ С.В.Пронкин, О.Е.Петрунина. Государственное управление зарубежных стран. - М: Аспект Пресс, 2001.- 243-бет.

ehtiyotsizlikka yo'l qo'yish, yuqori palata timsolida o'ziga muxolifat yaratish bilan baravar edi⁴².

Shu o'rinda yana bir sabab tilga olib o'tiladi: qator Federal saylovlarning qonun chiqaruvchi organlari o'z-o'zini tarqatib yuborgan, qolganlarini esa tarqatib yuborish rejalashtirilmoqda edi. Bunday sharoitda Federasiya Kengashi senatorlar zarur miqdorining yarmidan kamrog'idan iborat holda ishlashiga to'g'ri kelar edi. Ayni vaqtda Federasiya shu davrdagi Federasiya subyektlari ma'muriyatlarining ko'pchilik rahbarlari Rossiya Federasiyasi Prezidenti tomonidan tayinlangan edi. Federasiya Kengashi bunday tarkibda ochiq-oydin noqonuniy hisoblangan bo'lardi.

Federasiya Kengashi deputatligiga saylovlarda ishtirok etish uchun esa egallab turgan lavozimi bilan bog'liq holda hyech qanday cheklovlar o'rnatilmagan, hatto saylangandan so'ng ham har qanday vazifani Federal Kengash a'zoli bilan qo'shib olib borish mumkin edi. Ma'muriyat boshlig'i vazifasiga Prezident tomonidan tayinlanilganligiga qaramasdan Federasiya Kengashiga aholi tomonidan deputat etib saylanganligi munosabati bilan qonuniy hisoblanardi⁴³.

Ammo shunga qaramasdan, saylov yakunlariga ko'ra Federasiya Kengashi tarkibiga yuksak martabali amaldorlar ham (Rossiya tarkibidagi respublikalarning prezidentlari va bosh vazirlari, o'lka va viloyatlarning ma'muriyat rahbarlari, Kengashlari raislari), va bir vaqtda direktorlik korpusi vakillari ham, aqliy mehnat kishilari ham kirdilar. Bunday maxsus ichki turfa xilma-xillik palata ishini birmuncha mushkullashtirib yubordi. Senatorlar orasida «aslida hyech kimni taqdim etmaydigan» larni «o'zimizniki», «o'zga», «amal kursisini ko'rmagan» deya tabaqalash paydo bo'ldi. Hyech qanday guruh yoki mansabdorlar korpusining nomidan ish ko'rmaydigan deputatlar palatada doimiy asosda faoliyat ko'rsatib, o'z-o'zidan qonun ijodkorligi jarayoniga beqiyos ta'sir ko'rsata bordilar. Bu esa joylardagi amal kursisida o'tirib, band bo'lganligi bois Federasiya Kengashidagi

⁴² П.А.Федосов. Двухпалатные парламенты: европейский и отечественный опыт. // Полис, 2001. №2. 173-174 бетлар.

⁴³ Совет Федерации: Эволюция статуса и функции./Отв. ред Л.В.Смирнягин. - М: Институт права и публичной политики, 2003. 66 бет.

yig'ilishlarda oyida bor-yo'g'i ikki-uch marta qatnashadigan mintaqaviy rahbarlarning hafsalasini pir qila boshladi. Ammo boshqa tomondan senatorlar ichki korpusining yagona bir turga mansub emasligi palataning g'oyaviy-siyosiy qutblarga ajratilishini qiyinlashtirdi. Mintaqaviy rahbarlar mamlakatdagi mavjud siyosiy vaziyat ta'sirida o'zlarining g'oyaviy maslaklarini oshkora bildirishdan tiyilib turar edilar. Ushbu holat keyinchalik ijobiy holatga xizmat qildi: kommunistlar va Prezident o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, davlatning hali o'zini tiklab olmagan yosh institutlari o'rtasida nomigagina tenglik mavjud bo'lib turgan lahzalarda Federasiya Kengashi o'zining betarafligini saqlab qola bildi va murosaga keltiruvchilik rolini bajara oldi⁴⁴.

Shunday qilib Konstitutsiyada zikr etilgan qoidaga muvofiq o'tish davrida Federasiya Kengashining to'g'ridan-to'g'ri saylovlar vositasida shakllantirilishi o'zining ijobiy vazifasini ado etdi. Federasiya Kengashining dastlabki tarkibdagi ish tajribasi to'g'ridan-to'g'ri saylovlarning hududiy vakillikni ta'minlash vositasi sifatidagi kamchiliklarini ham aniqlab berdi. Xususan, hyech bo'lmaganda, mamlakat uchun o'tish davri sharoitida uning o'rinli emasligi tasdiqlandi.

Rossiya Federasiyasi yuqori palatasini shakllantirishning ikki yillik o'tish davri yakunlanganidan so'nggi yangi tarkibi «Rossiya Federasiyasi Federal Majlisi Federasiya Kengashining shakllanish tartibi to'g'risida»gi 1995 yil 5 dekabrda Federal qonun bilan belgilab qo'yilgandi. Unda belgilangan tartib Federasiya subyektlari yuqori lavozimdir shaxslari va Qonunchilik majlislari raislarining Federasiya Kengashiga maxsus saylovlarsiz a'zolicini nazarda tutgan edi. Bunda aynan mintaqalar ijroiya hokimiyatlarining vakillari qonunchilik organi a'zolariga aylanardilar. 1995 yilda ushbu ahvolni toqat qilib bo'lmaydigan holat deya baholadilar va xuddi shu asosga ko'ra yuqori palatani shakllantirish tartibini o'zgartirish talabi bilan chikdilar. Bunda uning ish samaradorligi yetarli emasligi ham yuqori palatani tuzishning ushbu tartibini o'zgartirish zarurati uchun yana bir sabab qilib ko'rsatildi. O'sha paytga kelib yuqori palata tomonidan deyarli har

⁴⁴ Совет Федерации: Эволюция статуса и функции./Отв. ред Л.В.Смирнягин. - М: Институт права и публичной политики, 2003. 174 бет.

oltinchi qonunni qabul qilish rad etila boshlagan edi¹. Yana buning ustiga palatalarning tarkibi aynan bir vaqtda emas, ijroiya hokimiyat rahbarlari va yangi mintaqaviy kiborlar saylanishi so'ngida amalga oshira boshlandi. Biroq eng asosiysi Federasiya Kengashiga aslida kuchli mintaqaviy yetakchilar joylashib ola boshlashib, yuqori palatani amalda yangi hokimiyat markazi qilib qo'ygandi⁴⁵. Yuqori palataning quyi palataga nisbatan posangi bo'lish va mintaqaviy hamda umumdavlat manfaatlarining asosiy ifodachisi vazifasini bajarishdan iborat g'oyasi mazmunidan birmuncha chekinish ko'zga tashlandi. Yuqori palatani «konstitusiyada uning uchun chegaralab ko'rsatilgan doiraga qaytarish»dan iborat obyektiv ehtiyoj yuzaga keldi⁴⁶.

⁴⁵ Совет Федерации: Эволюция статуса и функции/Отв. ред Л.В.Смирнягин. - М: Институт права и публичной политики, 2003. - 67-68, 74 бетлар.

⁴⁶ Парламентаризм в России. Федеральное собрание в 1996-1999 гг. - М: Фонд развития парламентаризма в Россия, 2000. 62 бет.

Xulosa

“Parlament va uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o‘rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan: Umuman olganda, parlament qanday turdagi vakolatlarga ega bo‘lishi ko‘p jihatdan uning tuzilish va boshqaruv shakliga, siyosiy tartibiga bog‘liq. Bundan tashqari parlament vakolatlariga bevosita davlatning demokratiyaviylik darajasi, u yuritayotgan siyosat ham ta’sir etishi mumkin. Masalan, Prezidentlik respublikalarida parlament hukumatni shakllantirishda deyarli ishtirok etmaydi, ijroiya hokimiyati ustidan nazorati ham u qadar keng emas. Parlamentar Respublikalarda esa parlament ijroiya hokimiyatini shakllantirishda faol ishtirok etadi, hukumat xabarini saylaydi, faoliyati ustidan kuchli nazorat olib boradi. Totalitar siyosiy tizim sharoitida Konstitutsiya va joriy qonunlarda parlamentga keng vakolatlar berilishi mumkin, biroq amalda ularda qiyinchilik bilan hayotga tadbiq qilinadi.

Ikkinchidan: Parlamentning eng muhim vakolatlari sifatida qonun qabul qilish, moliyaviy funksiyalarni amalga oshirish, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish, davlat organlarini shakllantirishda ishtirok etish kabilarni e’tirof etish mumkin.

Uchinchidan: Moliyaviy vakolatlar qatoriga davlat byudjetini tasdiqlash, soliqlarni joriy qilish kiradi. Davlat byudjeti, odatda, qonun hujjati ko‘rinishida qabul qilinadi. Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda aynan shunday tartib o‘rnatilgan. Biroq Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi davlatlarda davlat byudjeti dastur sifatida ishlab chiqiladi va bir qancha qonunlardan tarkib topadi.

To‘rtinchidan: Parlamentning soliqlarni joriy qilish vakolati nihoyatda muhim siyosiy ahamiyatga ega. Aynan shu vakolat orqali davlatning butun iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rstish mumkin. Ko‘p xollarda bu vakolat bevosita konstitutsiyada ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan, Bolgariya Konstitutsiyasining 60-moddasiga binoan, soliq va yig‘imlar, bu soxadagi imtiyoz va majburlovlar qonun bilan belgilanadi, ularni joriy qilish Xalq majlisi mutlaq vakolatiga kiritiladi.

Beshinchidan: Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish nihoyatda muhim parlament vakolatlaridan biri hisoblanadi. Ratifikatsiya - u yoki bu shartnomaga

qo'shilishda davlatning so'ngi roziligidir. Muayyan vaqt davomida xalqaro shartnomalarni ratifikasiya va denonsasiya qilish vakolati an'anaviy tarzda davlat boshlig'iga berilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan xalqaro shartnomalar tobora chuqurroq davlat ichki huquq tizimiga kirib bordi, xalqaro shartnomani imzolagan davlatga o'z ichki qonunchiligini unda ko'rsatilgan qoida va tamoyillarga muvofiqlashtirish majburiyati yuklatildi. Hozirda xalqaro shartnomalar Germaniya va Avstriya Federal Konstitutsiyalariga muvofiq federal huquqning tarkibiy qisim sifatida e'tirof etiladi. Fransiya Konstitutsiyasiga ko'ra esa, davlat tomonidan ratifikasiya qilingan xalqaro shartnomalar davlat chiqargan qonunlardan ustun xisoblanadi.

Takliflar: mamlakatimizda keyingi yillarda parlamentni shakllantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetish maqsadida, uslubiy, o'quv qo'llanmalar nashr etish va dars jarayonlarida kengroq qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqi // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: “O'zbekiston”, 2000. – 528 b..
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar, № 20 (3565).
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston. 2011.- 432 b.
4. Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti. Xalq so'zi. 1991 yil 2 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitusiyaviy qonuni.-Xalq so'zi, 2002, 27 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining “O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida”gi 2005 yil 27 yanvardagi 14-I-sonli qarori.
7. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Devoni to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005 yil 7 apreldagi 73-sonli Farmoyishi.
9. Xalilov E. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.–T.: O'zbekiston, 2001.– 348 b.

10. Azizxo'jayev A.A. Demokratiya xalq hokimiyati demakdir. – T.: Sharq. 1996. – 226 b.
11. Adiljodjayeva S.M. Evolyusiya politiko-pravovyx idey liberalizma, problemy ix realizasii na soveremennom etape: Voprosy teorii i praktiki: Avtoref.diss.dok.yurid.nauk. –T.: 2003.-51 s.
12. Boboyev H.B. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T.: Fan. 2004. – 294 b.
13. Boydadayev M. Fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvining dolzarb muammolari. – T. TDYuI. 2003.- 52 b.
14. Islomov Z.I. Inson huquqlari va hozirgi zamon yurisprudensiyasi. – T.TDYuI. 2008.
15. Jalilov Sh.I. Konstitusiya Respubliki Uzbekistan o dostoinstve i chesti lichnosti. T.: TGYuI. 2003. – 116 s.
16. Muqimov Z.Yu. O'zbekiston davlat va huquqi tarixi. Darslik. – T.: Adolat. 2003 y.
17. Odilqoriyev X.T. Konstitusiya va fuqarolik jamiyati – T.: Sharq. 2002. – 320 b.
18. Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. – T.: Sharq. 2001. – 762 b.
19. Fayziyev M.M. Milliy davlatchilik taraqqiyoti. – T.: JIDU. 2002. – 33 b.
20. Xusanov O.T. O'zbekiston respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. – T.: Universiteti. 1994. -132b.
21. Yuridik ensiklopediya, Toshkent, «Shark», 2001 yil, 355 – bet.
22. Bromxed P. Evolyusiya Britanskoy konstitusii. M., YuL, 1978 y., 199 b.
23. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnmx stran. Uchebnik. V 4-x tomax. Tom 3. Otv. red. B.A.Strashun. -M.: Bek. 1997. - 764 s.
24. O'razayev Sh.Z.. Mustaqil O'zbekiston Konstitusiyasi. T.: "Adolat", 1994 y. 12-bet
25. Xalilov E.X. Parlament Uzbekistana na sovremennom etape razvitiya strany. // Pravo. №1. - 1998. – 8-11-betlar.

26. Konstitusii zarubejnyx gosudarstv.Uchebnoye posobiye. Moskva: "Bek", str.50-55, 60-61.
27. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran. T. 1 – 2.- M., 1996, S. 456.
28. Sbornik materialov mejdunarodnogo seminara. T: - 2004g. str. 34-40.
29. Mogunova M.A. Skandinavskiy parlamentarizm. Teoriya i praktika. - M.: Rossiysk. gos. gumanit. un-t, 2001,-S.9.
30. Lyubimov A.P. Parlamentskoye pravo Rossii. - M.: Izdatelsko-knigotorgovsh sentr «Marketing», 2002, - 34.
31. Kotelevskaya I.V. Sovremennsh parlament // Gosudarstvo i pravo. - 1997. - №3. - s.10
32. Kotelevskaya I.V. Sovremennsh parlament // Gosudarstvo i pravo. - 1997. - №3. -s.10.
33. Klassicheskiy fransuzkiy liberalizm: Sbornik /Per s fr. - M: «Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya» (ROSSPEN), 2000. - S.364.
34. Lokk Dj. Sochineniya : V Zt./Per.s angl. i lat. T.Z/Red.i sost., avt. primech. A.L.Subbotin. - M.: Mysl, 1988.-S.40.
35. Klassicheskiy fransuzkiy liberalizm: Sbornik /Per. s fr - M.: «Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya» (ROSSPEN), 2000. -S.366
36. Sovet Federasii: Evolyusiya statusa i funksii/ Otv. Red. L.V.Smirnyagin. - Muassasa: Institut pravo i publichnoy politiki/. 2003. - S. 17.
37. Sbornik materialov mejdunarodnogo seminara. T: - 2004g. str. 34-40.
38. Mogunova M.A. Skandinavskiy parlamentarizm. Teoriya i praktika. - M.: Rossiysk. gos. gumanit. un-t, 2001,-S.9.
39. Lyubimov A.P. Parlamentskoye pravo Rossii. - M.: Izdatelsko-knigotorgovsh sentr «Marketing», 2002, - 34.
40. Kotelevskaya I.V. Sovremennsh parlament // Gosudarstvo i pravo. - 1997. - №3. - s.10

41. Klassicheskiy fransuzkiy liberalizm: Sbornik /Per s fr. - M: «Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya» (ROSSPEN), 2000. - S.364.
42. P.A.Fedosov. Dvuxpalatnme parlamenti: yevropeyskiy i otechestvennsh opnt. // Polis, 2001. №2. 173-174 betlar.

Elektron resurslar

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://Internet-law.ru>
3. <http://dissertstionl.narod.ru./avtorefeatsl>
4. <http://www.library.by/data>
5. <http://www.Lawportal.ru>
6. <http://www.Legislature.ru>